


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**60411300 – *Biznesni boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha)* bakalavriat ta’lim
yo‘nalishining malaka talablari**

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «7» 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60411300 – Biznesni boshqarish</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60411300 – Biznesni boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60411300 – Biznesni boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	<i>60411300 – Biznesni boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60411300 – Biznesni boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	<i>60411300 – Biznesni boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60411300 – Biznesni boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60411300 – Biznesni boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni yegallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	<i>60411300 – Biznesni boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.2	60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	8
2.4	Kvalifikatsiya.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i.....	10

1. 60411300 – *Biznesni boshqarish* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60411300 – *Biznesni boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60411300 – *Biznesni boshqarish* ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi
Malaka talabi 60411200 – *Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60411300 – *Biznesni boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60411300 – *Biznesni boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60411300 – *Biznesni boshqarish* bakalavriat ta'lim yo'nalishi – fan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi yo'nalish bo'lib, xo'jalik jamiyatlarida boshqaruvni tashkil etish, biznesni boshqarishning vazifalari, tamoyillari va ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini, biznesni boshqarishning tashkiliy tizimi xususiyatlarini, kompaniyalar faoliyatini samarali tashkil qilishda korporativ boshqaruvning roli va mulkdorlarning huquqini himoyalashni, raqobat vositalari yordamida korporatsiya investitsiya jozibadorligini oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida biznesni boshqarish modellarini, korporatsiyalarni boshqaruv organlari bilan munosabatlaridagi muammolarini kompleks yechish masalalarini qamrab oladi.

1.2.2. 60411300 – *Biznesni boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxonalar va muassasalar

samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

- davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;
- tashkilot va korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish jarayonlari;
- aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tashkil etish, korporativ boshqaruvning tashkiliy shakllari va zamonaviy uslublarini joriy qilish;
- korxonalarining investitsiya jozibadorligini oshirish, korporativ munosabatlarni tartibga solish;
- samarali dividend siyosatini yuritish, xujalik jamiyatlaridagi innovatsiyaviy jarayonlarni boshqarish, korporativ tuzilmalardagi korporativ munosabatlar.

60411300 – *Biznesni boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60411300 – *Biznesni boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;*
- *moliyaviy-iqtisodiy faoliyat;*
- *axborot-tahiliy faoliyat;*
- *hisob, tahlil va nazorat faoliyati;*
- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *tadbirkorlik.*

1.2.4. 60411300 – *Biznesni boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60411300 – *Biznesni boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- biznes munosabatlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish;
- investitsiya aktivlarini jalb etish, rejalashtirish, loyihalash va tashkil etish;
- biznesni boshqarish organlariga mukofotlar to'lovini tashkil etish va tartibga solish;
- aktivlardan samarali foydalanishni nazorat qilish;
- minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoyalash tizimini tashkil etish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- iqtisodiyot tarmog'i va xo'jalik jamiyatlari ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- biznesni boshqarishning manfaatdor tomonlar manfaatlariga mosligini monitoring qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

Moliyaviy-iqtisodiy faoliyatda:

- biznesni boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari xamda me'yoriy-huquqiy xujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;
- qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion aktivlar bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazish;

- xo'jalik jamiyatlari faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini qullash;
- xo'jalik jamiyatlarida dividend siyosatini qo'llash;
- xo'jalik jamiyatlarining ichki va tashqi audit faoliyat yo'nalishlarini belgilash;
- xo'jalik jamiyatlarining reyting ko'rsatkichlari va moliyaviy barqarorligini oshirish xamda ularni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;
- loyihalar samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:

- biznesni boshqarish sohasidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish usullarini bilish;
- iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- xo'jalik jamiyatlar faoliyatini mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xalqaro amaliyot mezonlari, me'yorlari va talablari asosida tahlil qilish;
- moliyaviy va mulkchilik ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish;
- moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash;
- tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan va texnik vositalardan foydalanish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni korporativ boshqaruv usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni korporativ boshqaruv tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;
- tarmoqlar va sohalarni korporativ boshqaruv tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- aksiyadorlik jamiyatlarida biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60411300 – *Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar*

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- biznesni boshqarish axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;
- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;
- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- aktivlarni baholash, aylanma mablag'larni boshqarish, dividend siyosati va kapital tuzilmasini shakllantirishda moliyaviy boshqaruvning asosiy usullarini qo'llay bilish;
- loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- makroiqtisodiy muhitni, bozor va unga xos xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazifalariga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni yegallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni yegallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni yegallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malakaviy amaliyot o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. 60411300 – Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4500	150
Tanlov fanlar	1620	54
Malakaviy amaliyot	720	24
Yakuniy davlat attestatsiyasi	360	12

2.3.2 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4500	150	
1.01	APPMAT16	Amaliy matematika 1	180	6	1
1.02	ECOTHE6	Iqtisodiyot nazariyasi	180	6	2
1.03	ICTECO6	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	180	6	1
1.04	APPMAT26	Amaliy matematika 2	180	6	2
1.05	FORLAN16	Xorijiy til 1(ingliz, fransuz, nemis, koreys)	120	4	1
1.06	FORLAN26	Xorijiy til 2(ingliz, fransuz, nemis, koreys)	180	6	2
1.07	LANGUA4	O'zbek(rus) tili	120	4	2
1.08	HISSET2	Iqtisodiy ta'limotlar tarixi	120	4	1
1.09	PHILOS4	Falsafa	120	4	1
1.10	MRHUZ4	O'zbekistonning yeng yangi tarixi	120	4	2
1.11	RELST4	Dinshunoslik	120	4	2
1.12	INTBUS6	Biznesga kirish	180	6	1
1.13	ENTIV6	Tadbirkorlik va innovatsiyalar	180	6	3
1.14	STATIS6	Statistika	180	6	4
1.15	BUSMAT6	Biznes matematika	180	6	3
1.16	MICROE6	Mikroiqtisodiyot	180	6	3
1.17	MACROE6	Makroiqtisodiyot	180	6	4
1.18	MARINF6	Bozor infratuzilmasi	180	6	3
1.19	BUS	Biznesda xizmat ko'rsatish operatsiyalarini boshqarish	180	6	4
1.20	FUNBM6	Kompaniyalar tashkil yetish va boshqarish	180	6	3
1.21	MARKET6	Marketing	180	6	5
1.22	DIGBUS6	Raqamli biznes	180	6	6
1.23	BUSSTR6	Biznes strategiyasi	180	6	6
1.24	LEADER6	Liderlik	180	6	6
1.25	PROMGS6	Xaridlarni boshqarish va global manbalar	180	6	5
1.26	BUSVA6	Biznesni baholash	180	6	8
1.27	RESMS6	Tadqiqot usullari va ko'nikmalari	180	6	8
2.00		Tanlov fanlar	1620	54	
2.00		Tanlov fanlar (9)	1620	54	4,5,7
		Jami	6120	204	
		Malakaviy amaliyot	720	24	6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	360	12	8
		Jami	1080	36	
		HAMMASI	7200	240	

2.4. Kvalifikatsiya: "Iqtisodchi, (Biznesni tashkil etish va boshqarish)"

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002:651.1/7

Guruh T 55

OXS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, raqobat, raqobatbardoshlik, sof monopoliya, oligopoliya, monopsoniya, tarkibiy o'zgarishlar, yangilanish va miqdoriy o'sib borishi, ishlab chiqarish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, xalqaro ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi, ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv, aralash iqtisodiyot, iqtisodiy sikllar, iqtisodiy o'sish, ish haqi, agrar munosabatlar, ishlab chiqarish xarajatlari, mulkchilik munosabatlari, investitsion muhit, o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQLDI:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Rektor  **K. Sharipov**
202_ yil « _____ » _____

M.O'.

KELISHILDI:

"O'zbekLizingInternational" AJ
Direktor  **Z. Mustafaev**
202_ yil « _____ » _____

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor  **Sh. Yakubov**
202_ yil « _____ » _____

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
Bojxona instituti

Bojxona instituti boshligi v.v.b.,
b/x polkovnigi  **R. Xabibov**
202_ yil « _____ » _____

M.O'.

"TASNIM TRANS" korxonasi.

Direktor  **H. Fayzullaev**
202_ yil « _____ » _____

M.O'.

"KIA AMG TRANS" korxonasi.

Direktori  **J. Rahimov**
202_ yil « _____ » _____

M.O'.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
60411300 – Biznesni boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablari
va o'quv rejalarining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va
asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent shahri

“ _____ ” _____ 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori K. Sharipov, O'zbekiston Respublikasi savdo sanoat palatasi raisi o'rinbosari J.O'rakov, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ Boshqaruv raisi o'rinbosari A. Kamalov, "O'zbekLizingInternational" aksiyadorlik jamiyati direktori Z. Mustafoev, Bojxona instituti boshligi v.v.b. R.Xabibovlar bilan birgalikda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishning malaka talablari va o'quv rejaları mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

1. 60411300 – Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi

Yuqoridagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarning ishlab chiqilishida kadrlar iste'molchilari hamda turdosh oliy ta'lim muassasalari tomonidan qo'yilgan talablar inobatga olingan.

Shuningdek, malaka talablarini ishlab chiqilishida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi" 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida" 2023-yil 5-iyundagi F-31-son Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "Oliy ta'limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida" 2023-yil 9-iyundagi 259-son buyrug'i hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib, shu bilan birga xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish bo'yicha turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda asosiy


kadrlar iste'molchilari bo'lgan vazirliklar, idoralar va boshqa korxonalar mutaxassislari tomonidan muhokamadan o'tkazilib, kelishildi.

Yuqoridagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari (sillabus) hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablarini o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etilishi maqsadga muvofiq.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori  K. Sharipov

Bojxona instituti boshligi v.v.b.  K. Xabibov

"O'zbekLizingInternational" AJ direktori  Z. Mustafоеv

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Boshqaruv raisi o'rinbosari  A. Kamalov

O'zbekiston Respublikasi savdo sanoat palatasi raisi o'rinbosari  J.O'rakov

